

Makkai mukarramaga borganimning dastlabki kunida Ka'batullohdav Ъ”Olloh uyi yonida tunni bedor o'tkazib, tilovat bilan bir qatorda baytlar yoza boshladim. Men bu holatga avvaldan bir muncha tayyor bo'lganim sabablimi satrlarim o'z-o'zidan quyilib kelaverdilar. She'riy hadislarimning barchasi payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom suxanlari bilan bevosita bog'liq edi. Madina shahriga borib, payg'ambarimiz maqbarasini ziyorat qilganimda ham menda xuddi yuqoridagidek holat yana yuz berdi. "Payg'ambar" she'rini yoza boshladim.

Hajning bir necha farz va sunnatlari bor. Haj odatdagi ziyorat, ya'ni umradan farq qiladi. Ularning tafsilotlarini hozir sanab o'tirmayman. Aytish kerakki, ushbu shartlarni to'lig'icha ado etish nihoyatda mashaqqatli jarayondir. Ayniqsa, bir necha million ziyoratchilar jazirama oftob ostida jam bo'lgan sharoitda hatto jon saqlash ham amrimahol bo'lib qoladi. Mening bu gaplarim zinhor-bazinhor hasrat yoxud nolish emas, Hajga har kim o'z ixtiyori bilan borgusidir. Noligan odam o'zidan ko'rsin. Bundan tashqari, Haq yo'li, Uning visoliga yetishmoq osongina kechadigan sayohat emas. Mumtoz shoirlarimiz "Riyoizat chekmaguncha yor vasliga yetib bo'lmas" deganlarida xuddi ana shu mashaqqatlarni ko'zda tutganlar.

Muallif
Ka'batulloh

Hanuz biri ikki bo'lmagan eldan
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Bag'ri xun, tolei kulmagan eldan
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Bir zamon uning ham bo'lgan qudrati,
Dunyoni yoritgan zehni, fikrati.
Hatto qirg'oqlarni buzgan shiddati,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Tegirmon toshidek aylandi taqdir,
Karvonlar to'zg'idi, sarbonlar basir.
Bandi bo'lgan edi ulug' yurt, axir,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Avj oldi ig'voyu firib, razolat,
Yig'ladi bir chetda yetim adolat,
Bormi saodatga, axir, kafolat,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Duch kelgan sanamga sig'indik gohi,
Bizga keng ochildi Shayton dargohi.
Axir, nima edi elning gunohi,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Xor bo'ldi Vatanda kimki ilmi bor,
Birovlar zar bilan topdi e'tibor.
Hiylagar ko'paydi, ko'paydi makkor.
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Magar bo'ri ekai odamga odam,
Bir-birin boshini yegay damodam,
Insof, diyonatni unutdik biz ham,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Hargiz aynimasin tomirdagi qon,
Mudom ta'zim qilgay asli qul Inson.
Haqiqat yo'q joyda yashnagay yolg'on,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Qay zamon odamlar bad fe'lin sezdim,
Vafoli do'st izlab dunyoni kezdim.
Topmadim, topmadim, baridan bezdim,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Qoshingda tiz cho'kib turibman shu dam,
Dilimda iltijo, qo'limda qalam.
Shafqating ayama mendan ham, Egam,
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Shukrona ayturman o'zingga, yo rab,
Yuz burdik hidoyat yo'liga qarab.
Haq degan yurtimning baxtini so'rab
Keldim, madad bergil, yo Ka'batulloh.
Payg'ambar

Siz bashar farzandi, Abdulloh o'g'li,
Arab sahrosidek otashin, cho'g'li,
Payg'ambar bo'ldingiz, muzaffar tug'li,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Yo, Alloh Rasuli, tengi yo'q Inson,
Sizning yo'lingizni yoritgay Qur'on,

Siz - Olam sarvari, Siz - nuri jahon,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Qiyomat ayyomi, Mahshar ayyomi,
Sizga nasib etsin Mahmud maqomi.
Mudom tilingizda ummatlar nomi,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Siz bilan olishdi mushriklar avval,
Bir nafas tinmadi jang ila jadal,
Rabbano qo'lladi Sizni har mahal,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Sizning murodingiz hidoyat erur,
Sho'rlik bandalarga inoyat erur,
Sizga ummat bo'lmoq saodat erur,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Sizning ziyoratga kelmishdir jahon,
Siz bois Madina tun-kun charog'on,
Quyosh ketmas bundan, oy boqar shodon,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Qabringiz qoshida turfa ummatlar,
Suvratlar boshqa-yu o'zga Siyratlar,
Axir, xos Insonga alvon sifatlar,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Bir yonda iymoni butunlar turar,
Bir yonda takabbur, manmanlar yurar,
Bari ham Allohdan kushoyish so'rar,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Rahmdil Insonsiz, bag'ri keng Rasul;
Barchaga yaxshilik tilaysiz nuqul,
Lekin kufr bilan kimlardir mashg'ul,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Kimdir pok bo'lgali ichadi qasam,
Lekin ichi qora, Shaytonga hamdam,
Ular Sizga faqat orttiradi g'am,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Hazrat, so'rang bizning gunohimizni,
Boshlang to'g'ri yo'lga gumrohimizni.
Egamga yetkazing oh-vohimizni
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Dunyoda yaxshilar ko'p hali, shukur,
Ular bor, yog'ilar zamin uzra nur.
Ummatsiz yo'q sizga halovat, huzur
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Keldim ziyoratga, ozurda jonman,
Ranju balolardan to'ygan Insonman.
Sizning poyingizda gardman, to'zonman,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Haq deb nina bilan tog'larni qazdim.
Bandaman, rost yo'ldan gohida ozdim.
Tavbamning izhori, shu she'rni yozdim,
Assalomu alayka, yo Muhammad,
Assalomu alayka, yo Ahmad.
Tilanchi Bola

Ka'baning muqaddas namozgohida
Ming-minglab mo'minlar yukinmoqqa shay.
Saflar orasida gohi-gohida

Ko'rinib qolardi bitta bolakay.
Kimdir uzatardi sadaqa-riyol,
Biroq ehsonga u qilmasdi ruju.
Qop-qora ko'zida cheksiz mung, xayol,
Lablarida esa hazin, nim kulgu.
Jim boqar, ishlari go'yo sarishta,
Faqat nigohida o'tinch porlardi.
Mening nazarimda u bir farishta,
Mehru saxovatga unsiz chorlardi.
Alloh Dargohi

Necha ming musulmon tunu kun uyg'oq,
Ka'ba atrofini tinmay aylanar,
Murodi tabarruk maskanni o'p'moq
Sajdaga har biri har zum shaylanar.
Olam ummon bo'lsa, girdobi shu joy,
Olam osmon bo'lsa, mehvari bunda
Milliard martabali jahon hoynahoy
Kemadek qalqadi bitta to'lqinda.
Yer bo'ylab tariqday sochilgan inson,
Bir qushning oldiga kelib tizilmish.
Abasdir bu joyda millat, irq, lison
Zamin yo'riqlari bunda buzilmish.
Bu joyning bor erur na Qorabog'i,
Na O'zgan, na O'shu Farg'onasi bor
Allohning o'zidir yolg'iz charog'i,
Charog'ning hisobsiz parvonasi bor.
Hatto nafrat mushti bunda tugilgay,
Axir yagonadir bu yerda maqsad.
Sig'insang gunohing duv-duv to'kilgay,
Iymonsiz bandaga yo'q lekin shafqat.
Shunchalik mukammal Alloh dargohi,
Mag'firat qil, deya dilni tig'ladim.
Har yonda taralar mo'minlar ohi,
To tongga qadarli yum-yum yig'ladim.
Hasrat

Qochgan ham, quvgan ham Allohim deydi
Qochgan ham, quvgan ham emasman do'stim.
Mening iztirobim shul edi,
Insondan o'zgani demasman do'stim.
Insonki to hanuz vahshiy va g'addor.
Bir-birin tinimsiz qulatar chohga
Bundayin qismatga ko'nikmoq dushvor
Netay hasratimni aytgum Allohga.
Ona

Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin.
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.
Hojar onamizning nidosi sabab
Ka'bada ko'z ochgan obi zam-zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg'ambarlar, ko'zlarida nam.
Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag'riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.
Sho'rlik odamzodning tolei uchun
Eng avval onalar qilsin ibodat.
Zora, gunohlardan pok bo'lgay ochun,
Onalar o'tinchi topib ijobat.
Ka'ba qopqasida turgan ey, posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin,
Onalar poyiga tiz cho'k o'shal on,
Tavof qil, ko'zga surt, o'pgin qo'llarin.
Arofat

Arofat tog'ining etaklarida
Ko'rdim qiyomatning alomatlarin.
Hamma bir xil libos - ehrom sarida,
Qaytadan varaqlar umr daftarin.
Yo'qdir birov bilan birovning ishi,
Ayuqash-uyqash bo'lmish yer bilan osmon.
Har kimning ichida dardi, tashvishi,
Shukrona aytmasang osiysan shu on.
Majruh boladan to munkillagan chol,
Labbay, Allohim deb qilar iltijo.
Kimdir tashnaliqdan ingraydi behol,
Kimningdir hayoti shul yerda ado.
Namoz vaqti kelar, tumonat muslim,
Sajdaga egilar, ko'zda jiqqa yosh,
Men ham safim bilan tiz cho'kaman jim,
Balki men ham qayta ko'tarmasman bosh...
Qiyomat nima deb so'rama endi,
Uning bir sahnasin ko'rsatdi Alloh.
Zo'r dengiz tonggacha qaynadi, tindi,
Sinovdan o'tganim rost bo'lsin, Valloh!
Hojilar

Halollik Islomda eng oliy matlab,
To'g'rilik Muslimning asl gultoji.
Bir kuni o'rtada Shayton oralab.
Hojining hamyonin urdi-ku hoji.
Qaysibir o'lkadan kelgan keksa chol,
Bor-yo'q bisotidan bo'ldi mosuvo.
Ne qilsin? Chorasiz turaberdi lol,
Dilida shukrona, tilida duo.
O'g'ri hoji esa mamnun ishidan,
Tinmayin sajdaga egilar boshi.
Nobakor bandaning bu qilmishidan
Badtarroq qoraydi Ka'baning toshi!
* * *

Ehrom kiyib olgan ikki musulmon
Bir-birin so'kishib choy talashardi.
Asli bilmasdilar, shu zum ikkovlon
Do'zaxning tubidan joy talashardi.
* * *

Kezib bu shaharni balki horgaysan
Va lekin Allohga diling yorgaysan.
Adasha-adasha Makkani topding,
Endi adashsang gar qayga borgaysan.
Asliyat

Bu yerga o'g'ri ham, to'g'ri ham kelar,
Poklanish har kimning muddaosidir.
Gunohu savobin har banda bilar,
Elning u shohidir yo gadosidir.
Hayotning oqimin to'xtatish qiyin,
Hech kim ayri tushmas qorgan loyidan.
Bir karra poklanib olgandan keyin
Ishlarin boshlaydi kelgan joyidan...
Shayton

La'natlab bo'lsa ham, qarg'ab bo'lsa ham
Har kun tilovatda aytilar nomi.
Uning bosh suqmagan joyi kamdan-kam,
Ichilgan har qadah uning ham jomi...
Deydilar, norasta go'dakni hatto
Uyquda qitiqlab kuldirar emish.
Salgina g'aflatda qolsang mabodo
Qilmagan ishingni qildirar emish.
Shaytonning hunari chindan rang-barang,

Sallani paytava qilib o'ratgay.
Agar sidqidildan ko'rsatsa nayrang
Nodonna shoh qilib, yurtni so'ratgay.
Minoda Shaytonni qildik toshbo'ron,
La'natga ko'mildi badbaxt u lain.
Dedik, shuncha yukning ostidan Shayton
Ming yillar chiqolmay yotmog'i tayin.
Shodumon yo'l oldik Vatanga qarab,
Shayton qoldi, deya chuqurda b'chohda.
Manzilga qaytgandik, Shayton, vo'ajab,
Bizni kutib oldi tayyoragohda.
Makka b'Madinab b'Toshkent
25 may b'16 iyun'
Hikmat Sadolari (Ellik Hadis)
Ibodot

Dunyodan roziman dema hech qachon,
Desang ham, so'ylagil sahroga, toqqa.
Chunki seni tinglab, kimdir o'sha on.
Nega rozisan, deb tutgay so'roqqa.
Dunyodan norizo bo'lsang ham agar.
So'z dema, bardosh qil azob, firoqqa.
Chunki seni tinglab, kimlardir battar,
Nega, deb albatta, tutgay so'roqqa.
Dunyo ishlariga boqma hech hayron,
Jimgina nazar sol ko'hna bu korga.
Olis kechalari yolg'iz qolgan on,
Dilingni och faqat parvardigorga.
Jabroil

Ul kuni Muhammad - hokisor banda,
Alloh nazariga bo'lgandi noil.
Sokin hujrasida o'ychan turganda,
Tushdi huzuriga Hazrat Jabroil.
Avval Muhammadning ko'ksini yorib,
Shaytoniy hislarni yulib tashladi.
So'ng iymon nuriga hikmatni qorib,
Muhammad ko'ksiga joylay boshladi.
Dedi: "Qalq o'rningdan endi, Muhammad,
Rasulsan, yo'l ko'rsat jam'i insonga
Noqis aqlarni hikmatga qarat,
Boshla osiylarni dinga, iymonga.
"Qum Fa Anzir!"

Qum fa anzir! b'Tur va ogoh et,
Yota berma misoli tanbal.
Qum fa anzir!- Tur va ogoh et,
Zimmangga ol kurashni dangal.
Qum fa anzir! b'Tur va ogoh et,
Oldindadir hali mashaqqat.
Qum fa anzir! b'Tur va ogoh et,
O'tda yongay mushriklar albat.
Qum fa anzir! b'Tur va ogoh et,
Ayt, mo'minlar bo'lsinlar qoyim,
Qum fa anzir!- Tur va ogoh et,
Ulug'lagin rabbingni doim.
Vahiy

Manman kimsalardan ranjidi Rasul,
Ko'ngli qolgandayin hatto do'st-yordan.
G'orlarga bekinay deganda butkul,
Vahiy tusha keldi Parvardigordan:
- Aytgil, ey Muhammad, manman kimsalar
Vahmkor bo'lsa ham nechog' siyog'i.
Qancha deyinmasin chiranib magar,
Teshib o'tdimikan yerni oyog'i?
- Aytgil, ey Muhammad, manman kimsalar
Vahmkor bo'lsa ham nechog' siyog'i.

Qancha kerilmasin chiranib magar,
Tog'larga yetdimi ekan dimog'i?
Me'roj

Arshning suluv oti - nurqanot Buroq,
Eltdi Muhammadni oliy dargohga.
Tasviri joizmas bu holni, biroq
Visol nasib etdi Rasulullohga.
Ne-ne payg'ambarlar jam bo'lib biryon
Rasulni o'zlarin qavmi deb bildi.
Minnatdor Muhammad shod bo'lib chunon
Allohdan shafqatni iltimos qildi.
Arshdan javob keldi: - Ayo, Muhammad,
Avval bir gapimni fahm etib ko'rgil.
Do'stlikda iltimos bo'lmagay minba'd,
Men ham buyurgayman, sen ham buyurgil.
Hazrati Odam

Joylari osmonda bo'lsa ham magar
Hazrati Odamga qiyindir g'oyat.
O'ng yoqqa boqqanda ruhlari yayrar,
Chap yonga boqqanda o'rtanar faqat.
Bir tomon B"jannatning fusunkor bog'i,
U rohat go'shasi, yam-yashil makon.
Bir tomon do'zaxdir, yo'qdir adog'i,
U yerda abadiy azob va fig'on.
Quv nar, o'ngga boqib Hazrati Odam,
Chap yonga boqqanda oshar nolasi.
Bir nasli jannatga moyil bo'lsa ham,
Do'zaxda yonmoqda bitta bolasi.
Inson

Oldiga kelganni qaytarmay yemoq
Aslida, aqli yo'q hayvonning ishi.
Og'ziga kelganni qaytarmay demoq
Noqisu befahm, nodonning ishi.
Tavajjuh ayladi tangri taolo,
Muqaddas sanaldi inson degan nom.
Insonni e'tirof etmagan asno
Iblis ham quvildi Arshdan batamom.
Ko'zingning o'ngida o'sgandek ekin
Rabbim ham ogohdir har zum har ishdan.
Ro'za-yu parhizda muddat bor, lekin
Hamisha hazar qil harom-harishdan.
Ona

Kimdir savol berdi: - Aytgil, Muhammad,
Yolg'iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko'p yaxshilik ayt, o'zing ayt,
Ota-onamgami? Yoxud bolamga?
Rasul javob qildi: - Tingla birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.B "
Bu hikmat sharhini o'yladim uzoq
Rostdan ona erur qiblai olam.
Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq
Onadan tug'ilgan payg'ambarlar ham.
Ota

Ota-yu onaning qazosi meros,
Oldin kelgan odam oldinroq ketsin.
Farzand farzand bo'lsin farzandlarga xos,
Avvalo tiriklar qadriga yetsin.
Bir kun so'radilar Rasulullohdan,
- Taqdir hukmi ekan bo'lgani bo'ldi.
Zarra foyda yo'qdir garchi oh-vohdan
Ayting, men netayin, padarim o'ldi.

Rasululloh dedi: - O'lim muqarrar,
Endi irodangni bardosh tomon bur.
Otangning tinchini o'ylasang agar.
Uning do'stlaridan xabar olib tur.
Farzand

Bir kuni ranjitdi otani farzand,
Ota o'z uyidan bosh olib ketdi.
Lekin Alloh mehri bo'lib sarbaland,
Ota Makkatulloh vasliga yetdi.
Ota fig'on chekdi Ka'ba qoshida,
Go'yo unut bo'lgay alamlar bari.
Najot charx urisa ham garchand boshida,
Sira ketolmadi bir gapdan nari.
Ka'baga sig'inan ekan kekxa chol
Armonin oshkora aytdi olamga.
Dedi: - Ibodatim bo'lsa ham uvol,
Faqat saodat ber o'sha bolamga.
Do'zaxiyalar

Yovlashdi bir kuni ikki musulmon,
Oradan adolat tamoman ko'chdi.
Ular olishdilar uzoq, beomon,
Oqibat birining kallasi uchdi.
Kimdir Payg'ambardan so'radi kelib:
- Ayo, Rasululloh, aylagil javob.
Hoynahoy, raqibin qonga g'arq qilib,
Ul kas jahannamda tortgaydir azob?
Rasululloh dedi: - U ham va bu ham
Mahkum bo'lg'usidir do'zax to'riga.
Ikkov ham maydonga tushganlari dam
O'lim tilaganlar biri biriga.
Jinlar Bazmi

Jinlar bazm qilardi ovloqda, tunda,
Gulxan atrofida xurram, shodumon.
Bir botir suvoriy o'tarkan, shunda
Bazmga nazari tushdi nogahon,
Botirni qopladi lahzalik titroq,
So'ng gulxan ustiga ot soldi birdan,
Jinlar to'zg'ib ketdi, bittasi biroq
So'z qotdi, hayiqmay sira botirdan:
- Bundoq zug'um qilma bizga, ey botir,
Kimsaga bilmasdan bermagil ozor.
Jinlar ichida ham kofiri bordir,
Jinlar ichida ham musulmoni bor.
Shayton

Shaytonning suvratin chizmoqlik dushvor,
Uning asl yuzin ko'rmoqlik mushkul.
U gohi xojadir, gohida dastyor,
U goho paridir - sochlari sumbul.
Gohi u do'stman deb so'z boshlar sekin,
Lutfi g'oyat shirin totli zaboni.
Zahmat yetkazolmas Shayton va lekin
Kimning butun bo'lsa agar iymoni.
Tushingda Rasulni ko'rdingmi - quvon,
Demak, ibodating yerda qolmaydi.
Rasululloh demish: - Shayton hech qachon
Mening qiyofamga kira olmaydi.
Bahs

Bir kun bahsga tushdi Do'zax va Jannat,
Tortisha boshladi har ikki tomon.
Biri azobini ukdirsa faqat,
Biri rohatini maqtardi chunon.
Do'zax gerdayardi: В Ъ ”Jam'iki yuzsiz,
Fosiq bandalarni yig'ib olgayman.

Jannat kerilardi:ب ٢”Men esa, so'zsiz.
Yaxshilarni to'plab dovrug' solgayman.
Arshdan nido keldi lekin o'shal dam:
- Bahsni to'xtatingiz, tinglangiz so'zim.
Shuni unutmangki, ikkingizga ham
Loyiq bandalarni jo'natgum o'zim.
Kibr

G'alati zotlar bor yorug' olamda,
Deylik, salomingga alik olmaydi.
Salomin aliksiz qoldirgan damda
Bu holni malomat qilmay qolmaydi.
Ular bu dunyoning go'yoki naqshi,
Jim boqar, savlati qo'rquvga solar.
Ularning gapirmay yurgani yaxshi,
Chunki nodonligi bilinib qolar.
Ular tashlab yurar yelkaga to'nni,
Kibr belgisidir bu ham begumon.
Demishlar: - Hoy banda, kiyib ol uni,
Yo'qsa tuynugidan kirgaydir Shayton.
Tavba

Sen gunoh qildingmi, bechora banda,
Sen shayton makriga uchdingmi nogoh.
Tinching qolmadimi ruh ila tanda,
Endi nadomatlar bo'ldimi hamroh.
Endi chora izlab, axtarib najot,
Kezursan, dastingda na imkon, na erk.
Gunohkor kimsaning qoshida nahot,
Qopqalar yopilgay, ostonalar berk.
Yo'q, hali olamda mavjuddir shafqat,
Yo'q, hali tebranur mehr beshigi.
Tavba qil, tavba qil, tavba qil faqat,
Senga ochiq faqat tavba eshigi.
Duo

Rasul bir ummatin alqab doimo,
Sha'niga duolar aytguvchi erdi.
Qo'ling baland bo'lsin desalar illo,
Qo'ling past tushmasin sira ham, derdi.
Rasulga u xitob qildi bir safar:
- Garchi men tangrining otgan toshiman.
Siz menga doimo tilaysiz zafar,
Go'yo men qandaydir lashkarboshiman.
Rasululloh dedi: - Tingla ey ummat,
Yongan chirog'ingga duo pilikdir.
Qo'ling baland bo'lsa, bilki, bu - ne'mat,
Qo'lning past tushmog'i tilanchilikdir.
Ibrat

Ruju qilmadilar Hazrat Payg'ambar
Na yuksak saroyga, na oltin taxtga.
Qaygadir toliqib etganda safar
Suyanib dam oldi bir tup daraxtga.
Kim aytar, dunyoda kibr ustivor,
Kim aytar, umrning ma'nosi shuhrat.
Rasul kamtarlikni qilib ixtiyor,
To mahshar bizlarga qoldirdi ibrat.
Rasul amr qildi: - Kesing daraxtni,
O'ylamang, borliqqa yo'qdir himmatim.
Payg'ambar daraxti bergay deb baxtni
Sig'inib yurmasin unga ummatim.
Bandaga Sig'inma

Hech qachon bandaga sig'inma, banda,
Zulm qilsa agar, zolimga la'nat.
Bitta ruh yashaydi har bitta tanda,
Insonning avliyo bo'lmog'i g'alat.

Garchi bu dunyoda bordir nodonlik,
Tafakkur, Aqlning koshonasi bor.
Qismatdan hech kimsa topmas omonlik,
Oldinda ajalning ostonasi bor.
Sehriga nechog'lik kaloming burma,
Lazizroq so'z yo'qdir so'zidan ortiq.
Dunyoda do'st izlab qancha yugurma,
Azizroq do'st yo'qdir O'zidan ortiq.
Xazina

Ulug' bir alloma o'tdi olamdan,
Elu yurt kuzatdi bag'rini tig'lab.
Shogirdlar bukchayib so'ngsiz alamdan
Olimni tuproqqa qo'ydilar yig'lab.
Dedilar: - U edi nodiri davron,
Tafakkur qasriga bo'lolgan zina.
Dedilar: - Bir keldi bundayin Inson
Ketdi uning bilan tengsiz xazina.
Kimdir oxir dedi: - Dunyoda, yohu,
Behikmat hodisa yo'q ekan rosti.
Naqadar shafqatsiz haqiqatdir bu,
Xazinaning joyi chindan yer osti.
Marhumlar Sha'ni

Marhumlar sha'niga yomon so'z demoq
Makruhlik sanalmish azaldan-azal.
Ey, Inson tanangga bir zum o'ylab boq,
Kimlarni zabtiga olmabdi ajal.
Toshqin sel vahmini soy ko'targaydir,
Hayotning zarbasin ko'targay hayot.
Misli toy tepkisin toy ko'targaydir,
Otning tepkisini ko'targanday ot.
Rasululloh demish: - Kim Haqqa yo'ldosh
Tiriklik qadrini u aziz bildi.
Marhumning ortidan ota ko'rmang tosh,
Marhum keladigan joyiga keldi.
Ezgulik

Bandani xillamoq nokasning ishi,
Atoyi Haq erur tus bilan zabon.
Insonni tanitgay faqat qilmishi,
Nasaron bo'lsin u va yo musulmon.
Bir burda non so'rab yig'lasa go'dak,
Diydangga kelmasa agar qatra yosh.
Masjidu cherkoving endi ne kerak,
Yaxshisi, yo'qlikka olib ketgil bosh.
Axir Rasululloh demish-ku ul dam:
- Hamisha saxovat yo'lidan yurgil.
Mayizday qop-qora boshli habash ham
Yaxshi ish qilganda yonida turgil! ,
Hasad

Dunyoga kelganda Inson mukarram,
Qavmlar shodlikda chuvvos soldilar.
Baxtiyor go'daqka aylashib karam,
Albatta momiqqa o'rab oldilar.
Oylar, yillar o'tdi, o'tdi ko'p sana,
Go'dak ham mo'ysafid yoshiga yetdi.
Kuni bitganida ul banda yana
Bir parcha momiqqa o'ralib ketdi.
Hasadgo'y kimsalar - Iblisga hamkor,
Momiqqa cho'zdilar faqat qo'llarin.
Egasin kafanga ayladilar zor,
Do'zaxga burmoqchi bo'ldi yo'llarin.
Mavhum Zot

Yurtga podshoh bo'ldi bir kun musulmon,
Bir osiy o'sha kun musulmon bo'ldi.

Yurtga podshoh bo'ldi bir kun nasoron,
Ul banda o'sha kun nasoron bo'ldi.
Toju taxt dunyoda aylanar payvast,
Shohlar goh darveshu hudparast bo'ldi.
Podshoh bo'lganida yurtga budparast
Ul banda o'sha chog' budparast bo'ldi.
Shundoq yashadi u foni hayotni,
U nayrang ko'rgazdi hatto Xoliqqa.
Oxirat kunida mavhum bul zotni
O'tqazib qo'ydilar uchta qoziqqa.
Shoh Va Gado

Nogoh paydo bo'ldi davrada gado,
Davra ahli esa shohlar edilar.
Ular taajjubda qolib shu asno,
Gadoga boqishib: - Kimsan? - dedilar.
Bir kun paydo bo'ldi davrada podshoh,
Davra ahli esa gadolar edi.
Ular ham taajjub ichra banogoh: -
Podshohga boqishib: - Sen kimsan? - dedi.
G'aybdan sado keldi: - Tingla ey banda,
Barchangga yaratgum yagona makon.
Bir-biring kamsitib qilma sharmanda,
Axir ikkingiz ham erursiz mehmon.
Rioya

Agar sen qiblaga burmasang yuzni
Besh mahal sajdayu namozing bekor.
Jannatga hech qachon tikmagil ko'zni
Agar bir mo'minga yetkangsang ozor.
Hijrating shunchaki sayohat erur
Unutar bo'lsang gar zarra iymonni.
Makkaga yetti qat borgancha bo'lur,
Boshini silasang o'ksik insonni.
Allohning nomiga qasaming abas,
Dilingda bor esa hasad ham riyo.
Nuqsingni behuda yashirmagil, bas.
Biridan voqifdir Tangri taolo.
Savob

Dasti kisqalarni kamsitma zinhor.
Savobning kattayu kichigi bo'lmas.
Kimningdir davlati behuda bisyor
Va lekin baxildir, tolei kulmas.
Och qolgan go'dakka saxovatli zot,
Yarimta xurmoni dildan ilindi,
Bilgilki, bu himmat shu zum, shu zahot,
Bus-butun savob deb qabul qilindi.
Demishlar savob ish ofatni to'sib,
Ezgulik yo'liga shaylangusidir.
Eng kichik himmat ham toychokdek o'sib,
Tulpordek savobga aylangusidir.
Haj

Necha cho'llar oshib, daryolar oshib,
Bir kun kirib keldi Makkaga karvon.
Dengizga yetishgan jilg'adek shoshib,
Ummatlar yo'l oldi Ka'baga tomon.
Ularning barchasi mo'ysafid edi,
Asoga tayangan, nuroniy boshlar.
Kimdir hayrat bilan ularga dedi:
- Nahot haj qilmaydi sizlarning yoshlar?
Ummatlar deyishdi: «B»Haq yo'li og'ir,
Afsus chekmoqlikdan mutloq narimiz.
Qutlug' bu safarga chiqqanda, axir,
Yosh-yosh yigit edik bizlar barimiz...
Qiyomat

Bir kun Muhammadga berdilar savol:

- Ayo, Rasululloh, aytib ber buni
Qachon foniy dunyo topgaydir zavol,
Qachon sodir bo'lgay Qiyomat kuni?
Garchand Biru Borga somedir Inson,
Iblis qutqusi ham har qayda bordir.
Kimningdir dilida sobitdir iymon,
Kimgadir shaytoniy vasvasa yordir.
Rasululloh dedi: - Umid qil, banda,
Ko'chmasin dunyodan insof, diyonat.
Nopok odamlarga kuning qolganda,
Bilgilki, o'sha kun kelgay Qiyomat!
G'iybat

Do'zax yo'llaridan o'tarkan Rasul,
Atrofga ko'z tashlar edi damodam.
Kimdir faryod solib yig'lardi nuqul,
Otashda yonardi o'zga bir odam.
Yo'lning kanorida-shundoq sarhadda
O'limtik yer edi allaqanday zot.
Nogoh Rasululloh boqib hayratda,
Jabroilga dedi: - Bul kimdir, hayhot!
Jabroil aytdikim: - Bunda har kimsa,
Jazosin olgaydir qilmishiga xos.
O'limtik yeguvchi bul banda esa,
Umrin g'iybat bilan o'tkazgan xolos.
Xoja Va Shoir

Qabila Xojasi shoirga bir kun
Oq tuya mingizdi, ko'rgizib hurmat.
Xoja o'z ishidan bo'ldi ko'p mamnun,
Bamisli Rasulga yo'liqqan ummat.
Xojadan so'rashdi: - Aytingiz, janob,
Ulug' bu ehsondan nedur muddao?
Shoir-ku bir darvish - faqir va xarob,
She'riga shu qadar maftunmisiz yo?
Xoja javob qildi: - Bo'lmangiz hayron,
Kim ham ayri tushar axir elidan.
Shoirning she'ri-ku yoqar begumon,
Men ko'proq qo'rqaman uning tilidan.
Hayit

Hayit kunlarida janglar ham to'xtab,
Qilichlar qiniga qaytib kirguvsi.
Mo'minlar egizak jonlarga o'xshab,
O'zga boqqan choq o'zni ko'rguvsi.
Umidvor har kimsa topib kushoyish,
Qorong'u dillarga yog'ib turgay nur.
Uyquda farog'at, yurtida osoyish,
Duolar ijobat, niyatlar manzur.
Adovat, hasadni kasb etgan inson,
Mayli shoh yo gado, yo sayid bo'lsin.
Iloyo, bariga baxsh etsin iymon,
O'tar har lahzasi bir hayit bo'lsin.
Kamolot

G'oyat g'arib edi Rasul hujrasi,
Qamish uy edi u, oddiy va faqir.
Ummatlar so'rashdi: - Gapning sirasi,
Sizga yarashmaydi bu kulba axir.
Ular tag'in dedi: - Siz-ku Payg'ambar,
Tomingiz ne uchun bu qadar pastdir?
Rasul javob qildi: - Tinglangiz, magar
Balandni istagan balandparastdir.
Siz salom berdingiz - olgayman alik,
Allohning o'zidir yuksak begumon.
Bandaga joizdir faqat kamtarlik,
Yo'l pastdan boshlanar kamolot tomon.

Layli Va Majnun

Har kimga hamroxdir hamisha qismat
Kimdir boshin egar, kim ko'ksin kergay.
Rasululloh demish: - Allohdan faqat
Kim nima so'rasa, o'shani bergay.
Oyoq qo'lin bog'lab Laylini bir kun
Olib kelishdilar Ka'baga tomon.
Layli xitob qildi: - Tavba ne uchun,
Majnunim bo'lmasa tiyradir jahon.
Ibodat Majnunning navbati edi,
U ham oshkor etdi ko'ngil maylini.
Ka'baga bosh urib turarkan dedi:
Men sendan so'rayman faqat Laylini.
Oyisha

Oyisha, Oyisha, Oyisha ona,
Nechun ko'zlarindan oqar marjon yosh.
Senga Rasululloh o'zi parvona,
Bir muhring Oy bo'lsa, birisi Quyosh.
Tonglarni ottirding juftingga qarab,
Shoni shon keltirdi, hasrati - ado...
Payg'ambar zavjasi bo'lmoq-ku sharaf,
Insonga yo'ldoshlik og'irdir, ammo.
Oyisha, Oyisha, mangu sabot top,
Senga termulamiz bizning barimiz.
Shamollab qolmasin, ustlarini yop,
Orom olayotir Payg'ambarimiz.
Pahlavon

Bir suhbat chog'ida Hazrat Payg'ambar
O'rta tashladi savol nogahon.
Aytdilar: - Zarurat tug'ilsa magar
Kimni atardingiz asl pahlavon?
Sahobalar dedi: - Har kim doimo
Chekiga tushganni kelgandir olib.
Kurash maydoniga chiqqanda ammo,
Pahlavon sanalgay kim bo'lsa g'olib.
Rasululloh dedi: - Ko'hnadir jahon,
Turfa xil kuch-qudrat bordir odamda.
Lekin o'z jahlini yengolgan inson
Haqiqiy pahlavon erur olamda.
Shafqat

Qabriston yonidan o'tarkan Rasul,
Ketganlar yodiga fotiha tortdi.
Yengillik sezgaydir bunday chog' ko'ngil,
Biroq Payg'ambarning g'ussasi ortdi.
Garchi boqiy emas dunyoda inson,
Garchi u aylangay bir kun tuproqqa.
Rasul anglasa ham bu holni obdan
Oddiy banda yanglig' tushdi titroqqa.
Sahobalar dedi: - Qandayin zug'um,
Qanday g'am bag'ringiz tig'lamoqdadir?
Rasul javob qildi: - Bir osiy shu zum,
Qabrida qon qaqshab yig'lamoqdadir.
Hordiq

Arab sahrosida yo'l yurib karvon,
Topdi bir manzilda qo'nim va qaror.
Horg'in Rasululloh - ozurda ul jon,
Hordiq chiqarmoqni qildi ixtiyor.
To'shaksiz, taqirda yotdi yonboshlab,
Bamisli ochundan ko'ngli qolgan qul,
Keldi sahobalar ko'zlarin yoshlab:
- Hech qursa, bo'yrada yotingiz, Rasul.
Rasululloh dedi: В Ё”O'ylamang, aslo
Fanodan men rohat kutayotirman.

Bu dunyo daraxtning soyasi go'yo,
Men undan ot minib o'tayotirman.
Shamol

Shamollar, shamollar deydi shamollar,
Qaydan esganingiz bilolmay dog'man.
Siz bilan chulg'anur ne-ne xayollar,
Sizning taftingizda xasta yo sog'man.
Arab sahrosida esgan ey samum,
Sovurding kimlarning tuyg'ularini.
Shahidalar uchun goh bo'lding tayammum,
Qumlarga dafn etding orzularini.
Shamol esganida Hazrat Payg'ambar
Mudom to'lg'onardi dilgir betoqat.
Der edi: B T Har qanday shamol muqarrar
Yo hayot keltirgay yoki falokat.
Ro'za

Ramazon oyida, hayit chog'ida,
Sumalak pishirdi ahli musulmon.
Unni qovurdilar zaytun yog'ida,
Halim tayyorladi kimda bor imkon.
Bahor keldi mana, qishdan chiqoldik,
Bergan rizq-ro'ziga, ne'matga sharaf.
Tog'dayin zahmatni oxir yiqoldik,
Tabiatga sharaf, himmatga sharaf.
Ro'zadan chiqqanlar, Sizga ham rahmat
Farzingiz sinovli saodat erur,
Rasululloh demish: - Sabr qil ummat,
Mo"minlik belgisi qanoat erur.
Bilol Habash

Payg'ambar ummati - qora tan Bilol
Rasulga hamisha kamarbastadir.
Siddiq ila vafotga bo'ldi u timsol,
Qaytmadi rost yo'ldan, sog' yo xastadir.
Bilol aytar edi azonni yakkash,
Sazovor bo'lmishdi ishonchga andoq,
Rasuldan so'rashdi: Bu qora habash,
Jannat chehrasiga yarashgay qandoq?
Javob shunday bo'ldi:- So'ylangiz bilib,
Uning oq dilida iymon ohangi.
Jannat hurlariga qora xol qilib,
Bo'lib berilgandir Bilolning rangi.
Hidoyat Yo'li

U senga ko'rsatdi hidoyat yo'lin,
Yurgil yo yurmassan, o'zing bil, inson.
Balki sen tutgaysan Iblisning qo'lin,
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.
Pishqirgan daryoning sohilida gar
Tashnayu zor qolsang, aybdorsan o'zing.
Boshingga nogahon balolar yog'ar
Labingdan uchgan chog' jaholat so'zing.
G'oyibdan baxt kutib o'tirmoq nechun,
Dastingga kor berdi qalbingdagi yor.
Zaminda ko'rgazgan qilmishing uchun,
Osmonni malomat qilmog'ing bekor.
Tenglik

Boshini har qancha tebratgan bilan.
Oqil bo'lib qolmas uchragan jonzot.
Yo'qsa, hind morbozi o'ynatgan ilon
Ja'mi donolarni aylar edi mot.
Allohim bir sizning mulkingiz emas,
Emukdosh emasdir Sizga payg'ambar.
Samovat nomidan so'zlamangiz, bas,
Sizu bir qushdan to'z'g'ib tushgan par.

Yonma-yon bitikmiz taqdir toshida,
Birimiz yoqa-yu, birimiz yengmiz.
Rasululloh demish:- Haqning qoshida
Taroq tishlaridek barchamiz tengmiz.
Jon Achchig'i

Buloqdan suv ichdi hazrati Iso,
G'oyat totli edi bu obi hayot.
Suvni bir ko'zaga qo'yganda ammo
Zaqqumga aylandi u o'sha zahot.
Hayratga tushgandir payg'ambarlar ham,
Bu qanday sir erur? Ayon qil, ayo rab!
Masiho nafasi yetishgani dam
Ko'zadan bir ovoz chiqdi-ku titrab:
- Ayo, shirin suving bo'ldimi taxir,
Dema, bu - tuz ta'mi qon achchig'idir.
Men ham Inson edim, Ko'zaman hozir,
Suvni achchiq qilgan jon achchig'idir!
Sen Kabi

Onangni otangga xatlab berganda
Guvoh bo'lmaganman ishongil axir.
Boqursan, yuzingda quv zaharxanda,
Dunyoni go'yoki men etdim taxir.
Bosgan qadamimdan chaqnamas olov,
Da'vo qilmasman Hech abadiyatga.
Na qo'rg'on qurdimu na tutdim yalov,
Doim yo'ldosh bo'ldim oddiy niyatga.
Boshni ko'p qotirma sen kimsan debon,
Kimning xesh, kimningdir andasidirman,
O'tkinchi dunyoda men ham bir mehmon,
Xudoning sen kabi bandasidirman.
Chora

G'anim bo'lib qoldi kimdir kimgadir,
Ular ikkisi ham oqsoqol edi.
O'rta tushgandi gina negadir,
Ikkisi ham go'yo bezavol edi.
Uzoq vaqt olishdi ikkita yigit,
O'zim haq der edi ikkalasi ham.
Sira kor qilmadi nasihat b'og'it
Chorasin topolmay hakamlar mulzam.
Oxir so'radilar Rasululloxdan
Ayo o'zing aytgin eng odil so'zni.
Rasululloh dedi: - Qo'rqing gunohdan
Siz ular o'rnida his qiling o'zni...
Azroil

Badaviy shaklida kelib Azroil
Muhammadga dedi: b'ningni olgum.
Va lekin hurmatga ekansan noil,
Tila tilagingni, do'st bo'lib qolgum.
Muhammad to'lg'ondi o'nggayu so'lga,
Dedi: - Ola qolgin, kerak bo'lsa jon.
Magarki iltifot qilding Rasulga,
So'nggi tilagimni aylayin bayon.
Yolg'iz o'tinchim bu, qaytarma minba'd,
Mayli so'ng tepamda ko'ksingni kergil.
Ummatim jonini oson ol faqat,
Uning azobin ham o'zimga bergil.
Qul Va Quyosh

Demasman, Zulmatda mudom faryod qil,
Himmat nuri bilan dilni obod qil,
Rasululloh demish: - Oshma haddingdan,
Quyosh tutilganda qulni ozod qil!
Hadis

This is not registered version of TotalDocConverter

Bu ilag'da gona'atim o'zidan men ham,
Mening ham dilimda oshiqlar ohi.
Hadischi bobolar degandek u dam,
Tavbamni qabul et, o'zing, Ilohi.
Ulg'aydik va lekin oldda ko'p gap bor,
Davr shamollari esib o'tgaydir.
Inongum, e'tiqod o'zi bo'lib yor
Bizning ham qo'limiz bir kun tutgaydir.
Ibodat bor edi, u etgay davom,
Qirq bilan yopmasmiz bu uyning tomin.
Bizni tinglaganga hamisha salom,
Yana ko'rishguncha sog' bo'ling! Omin!